

## SUN'IY INTELLEKT VA INSONIYLIK: IJTIMOY PSIXOLOGIK OQIBATLAR

*Azizova Dinara Rahmiddinovna**Osiyo Xalqaro Universiteti "Pedagogika va psixologiya"**kafedrası o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada sun'iy intellektning jamiyat va inson psixologiyasiga ijobiy va salbiy ta'sirlari tahlil qilingan. Sun'iy intellektning rivojlanishi ish o'rinlarini avtomatlashtirish orqali iqtisodiy tengsizlikni kuchaytirishi, ijtimoiy aloqalarni zaiflashtirishi va hissiy ehtiyojlarning qondirilmaligiga olib kelishi mumkinligi muhokama qilingan. Shuningdek, maqola axborot manipulyatsiyasi, psixologik xavfsizlik va axloqiy muammolarni yoritadi. Muallif SI texnologiyalaridan insoniyat manfaatlariga mos foydalanish uchun axloqiy tamoyillarga asoslangan yondashuvlarni taklif etadi. Ushbu maqola sun'iy intellektning zamonaviy jamiyatdagi o'rnini anglashga qiziquvchi tadqiqotchilar va mutaxassislar uchun foydalidir.

**Kalit so'zlar:** Sun'iy intellect, jamiyatga ta'sir, inson psixologiyasi, ijtimoiy izolyatsiya, iqtisodiy tengsizlik, axloqiy dilemmalar, axborot manipulyatsiyasi, psixologik xavfsizlik

**Аннотация:** В данной статье анализируются положительные и отрицательные влияния искусственного интеллекта (ИИ) на общество и человеческую психологию. Обсуждается, как развитие ИИ может способствовать экономическому неравенству за счет автоматизации рабочих мест, ослаблению социальных связей и неудовлетворению эмоциональных потребностей. Также в статье освещаются вопросы манипуляции информацией, психологической безопасности и этических проблем. Автор предлагает подходы, основанные на этических принципах, для использования технологий ИИ в интересах человечества. Эта статья будет полезна исследователям и специалистам, заинтересованным в изучении роли искусственного интеллекта в современном обществе.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, влияние на общество, человеческая психология, социальная изоляция, экономическое неравенство, этические дилеммы, манипуляция информацией, психологическая безопасность

**Abstract:** This article analyzes the positive and negative impacts of artificial intelligence (AI) on society and human psychology. It discusses how AI development may exacerbate economic inequality through job automation, weaken social connections, and fail to meet emotional needs. The article also highlights issues such as information manipulation, psychological safety, and ethical dilemmas. The author suggests ethical approaches to leveraging AI technologies for the benefit of humanity. This article is valuable for researchers and professionals interested in understanding the role of artificial intelligence in modern society.

**Keywords:** artificial intelligence, societal impact, human psychology, social isolation, economic inequality, ethical dilemmas, information manipulation, psychological safety.

**Kirish**

Sun'iy intellekt (SI) so'nggi yillarda eng muhim texnologik yutuqlardan biriga aylandi. Dastlab ilmiy laboratoriyalarda boshlang'ich tajriba sifatida ko'rilgan bo'lsa, bugungi kunda u kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Masalan, avtomatlashtirilgan transport vositalari, sun'iy intellekt yordamida ishlaydigan sog'liqni saqlash tizimlari, suhbat robotlari va ovoz yordamchilari kundalik ehtiyojlarni qondirishda muhim rol o'ynamoqda. Lekin bu rivojlanish insonning psixologiyasiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Sun'iy intellektning ijtimoiy aloqalarga, ish joylaridagi muhitga va shaxsiy rivojlanishga ta'siri qanday bo'lishi mumkin? Maqolamizda ushbu masalalarni tahlil qilamiz.

### Asosiy qism

Sun'iy intellekt (SI) va insoniylik — bu ikki tushuncha o'rtasidagi munosabatlar va farqlarni o'rganish zamonamizdagi muhim mavzulardan biridir. Sun'iy intellekt, o'zining dastlabki kontseptsiyasidan tortib, bugungi kunga qadar inson aqlini modellashtirishga va ko'plab vazifalarni avtomatlashtirishga qaratilgan texnologik yutuqlarni o'z ichiga oladi. Ammo, sun'iy intellekt va insoniylik o'rtasidagi bog'lanishlar murakkab va ko'p qirrali. Sun'iy intellekt - bu kompyuter tizimlarining inson kabi fikrlash, o'rganish, qarorlar qabul qilish va hatto his-tuyg'ularni aniqlashga urinishidir. Hozirgi kunda SI asosan mashinasozlik, tibbiyot, transport, va boshqa sohalarda faol ishlatilmoqda. O'z navbatida, bu texnologiya yangi ish o'rinlari yaratishga yordam beradi, shuningdek, hayot sifatini yaxshilash uchun imkoniyatlar yaratadi. Insoniylik esa, asosan, etika, ahloq, hissiyotlar va empatiya bilan bog'liqdir. Insonlar o'zlarining his-tuyg'ulari, axloqiy qarorlar va boshqalar bilan bo'lgan munosabatlar orqali boshqalar bilan bog'lanadilar. Insoniylik, shuningdek, ijtimoiy, madaniy va axloqiy qadriyatlarga, shuningdek, adolat, tenglik va hurmat kabi masalalarga ham bog'liqdir.

Sun'iy intellektning rivojlanishi insoniylikka qanday ta'sir qilishini tahlil qilish muhim. Ba'zi ekspertlar, masalan, SI tizimlarining insonlarning ishlarini almashtirish yoki jamiyatda tengsizlikni kuchaytirish xavfini ko'rib chiqmoqdalar. Shuningdek, sun'iy intellekt axloqiy masalalarni keltirib chiqarishi mumkin, masalan, kim javobgar bo'lishi kerakligini belgilashda yoki insonlarning xatti-harakatlarini nazorat qilishda.

Bundan tashqari, SI tizimlarining hayotimizdagi roli ko'payishi bilan, ular bilan insonlarning o'zaro munosabatlarida etik me'yorlar va boshqalar haqidagi qarorlar ham murakkablashadi. un'iy intellektning insoniylikka tahdid solmasligini ta'minlash uchun quyidagi yondoshuvlar zarur:

1. Axloqiy SI tizimlari yaratish. Sun'iy intellekt tizimlari insoniyatning axloqiy qadriyatlarini va normalariga mos kelishi kerak. Bu, o'z navbatida, SI tizimlarining insonlarga zarar yetkazmasligini ta'minlashga yordam beradi.
2. Insonlar va SI hamkorligi. Insonlar va sun'iy intellekt tizimlarining birgalikda ishlashini rag'batlantirish kerak, chunki bu insoniyat uchun eng yaxshi natijalarga olib keladi. Masalan, tibbiyotda doktorlar va sun'iy intellekt tizimlari birgalikda bemorlar uchun eng yaxshi davolash rejasini tuzishi mumkin.
3. Sun'iy intellektni boshqarish: Sun'iy intellekt texnologiyalari ishlab chiqilayotgan va joriy etilayotgan paytda, ularni boshqarish va nazorat qilish uchun jahon miqyosida aniq qonunlar va me'yorlar ishlab chiqish zarur.

Sun'iy intellektning rivojlanishi va keng tarqalishi ijtimoiy hayotda va individual psixologiyada sezilarli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Quyida ularning ba'zi asosiy oqibatlarini ko'rib chiqamiz.

#### 1. Ishsizlik va iqtisodiy tengsizlik

Sun'iy intellektning eng muhim ijtimoiy oqibatlaridan biri — ish o'rinlarining avtomatlashtirilishi. SI tizimlari ko'plab sohalarda inson mehnatini almashtirishi mumkin, masalan: Fabrikalar va ishlab chiqarish: Avtomatlashtirilgan tizimlar va robotlar odamlarni ish joylaridan chetlatishi mumkin. Ofis ishlari: Kichik va o'rta biznesda ko'plab vazifalarni SI tizimlari amalga oshirishi mumkin, bu esa ma'lum darajada ish o'rinlarini kamaytiradi.

Bunday holat ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin, chunki yangi ish o'rinlari yaratish uchun zarur bo'lgan malakalar va ko'nikmalar ko'p odamlar uchun mavjud bo'lmayligi mumkin. Natijada, ba'zi guruhlar (masalan, past malakali ishchilar) o'z o'rinlarini yo'qotib, iqtisodiy jihatdan qiyin holatda qolishi mumkin.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Masalan: Amazon va boshqa yirik kompaniyalar o'zining avtomatlashtirilgan omborlarini yaratdi. Ushbu omborlarda robotlar mahsulotlarni joylash, yig'ish va yetkazib berish kabi ishlarni amalga oshiradi. Natijada, odamlar bu ish o'rinlarini yo'qotmoqda. Misol uchun, Amazonning "Kiva" robotlari ko'plab ombor xodimlarining ishini almashtirdi. Bu ishchilarning ba'zilari yangi ko'nikmalarni o'rganishi kerak bo'ldi yoki yangi ish topishga majbur bo'ldilar. Odamlar bu holatni iqtisodiy noqulaylik va yangi texnologiyalar bilan kurashishda o'zlarini keraksiz his qilishlari mumkin.

## 2. Alohida yashash va izolyatsiya

Sun'iy intellekt texnologiyalari odamlarning kundalik hayotiga kiritilishi bilan, odamlar ko'proq onlayn bo'lishi va yuzma-yuz muloqotdan cheklanib qolishi mumkin. Bu quyidagi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin:

Jamiyatdan ajralish: Yuzma-yuz muloqot va jismoniy faoliyatning kamayishi odamlar o'rtasidagi aloqalarini pasaytiradi. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy izolyatsiya va yolg'izlikka olib kelishi mumkin.

Shaxsiy hissiyotlar: Insonlar sun'iy intellekt bilan ishlashda yanada "yolg'iz" his qilishi mumkin. Masalan, onlayn yordamchilar bilan ishlashda odamlar hissiy qo'llab-quvvatlashni sezmasligi mumkin.

Masalan: Ko'plab odamlar, ayniqsa yoshlar, onlayn o'yinlar va ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari vaqt ajratishadi. Sun'iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan chatbotlar va virtual yordamchilar, masalan, Siri, Alexa, va boshqalar odamlarning to'g'ridan-to'g'ri inson bilan muloqot qilishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Bu holat ijtimoiy izolyatsiyani kuchaytiradi. Yoshlar, masalan, o'z vaqtlarini onlayn do'stlar bilan o'tkazishadi, lekin bu ularga haqiqiy dunyo va yuzma-yuz aloqalar haqida tajriba bermaydi.

## 3. Emosional holat va empatiya

Sun'iy intellekt texnologiyalari, jumladan, robotlar va virtual yordamchilar, ba'zan odamlarning hissiy ehtiyojlarini qondira olmaydi. Bunda: Emosional bo'shliq: Odamlar, masalan, virtual yordamchi yoki robot bilan muloqot qilganida haqiqiy his-tuyg'ularni his qilishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Natijada, bu, odamlarning emosional bo'shlig'ini keltirib chiqarishi mumkin. Empatiya kamayishi: Sun'iy intellekt tizimlari, albatta, empatiya ko'rsatmaydi. Bu esa insonlar o'rtasidagi haqiqiy empatik munosabatlarni kamaytirishi va ijtimoiy aloqalarni zaiflashtirishi mumkin. Masalan: Sun'iy intellektning rivoji bilan odamlar tez-tez virtual yordamchilardan yordam olishadi. Masalan, Woebot — bu sun'iy intellekt asosida ishlaydigan onlayn terapevt, foydalanuvchilarga stressni boshqarish yoki kayfiyatni yaxshilash uchun maslahatlar beradi. Biroq, bu robotlar haqiqiy insonga nisbatan empatiya ko'rsatish qobiliyatiga ega emas, shuning uchun foydalanuvchilar faqat texnik yordam oladi, ammo hissiy qo'llab-quvvatlashni sezmaydigan uchun ba'zida odamlar hissiy jihatdan bo'shab qolishi mumkin.

## 4. Axborot manipulyatsiyasi va dezinformatsiya

Sun'iy intellektning rivojlanishi axborotni tezda tarqatishga va manipulyatsiya qilishga imkon yaratadi. Masalan: Deepfake texnologiyalari: Sun'iy intellekt yordamida yaratilgan noto'g'ri videolar yoki audio yozuvlar odamlarni aldatish va manipulyatsiya qilishda ishlatilishi mumkin. Dezinformatsiya: Sun'iy intellektning yordamida targ'ibot va reklama usullari rivojlanib, jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilish osonlashadi. Bu esa ijtimoiy ishonchni pasaytirishi va shubhalarni kuchaytirishi mumkin. Masalan: Deepfake texnologiyalari yordamida sun'iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan video va audio materiallar odamlarni aldatishda ishlatilishi mumkin. Masalan, 2020 yilgi AQSh prezidentlik saylovlari davomida deepfake texnologiyalari siyosiy targ'ibotda ishlatildi. Deepfake video va audio materiallari orqali jamoatchilik fikri manipulyatsiya qilindi. Bu texnologiyalar ijtimoiy ishonchni kamaytiradi va odamlarning

axborotga nisbatan shubhalarini kuchaytiradi, natijada, ijtimoiy muammolar va shubhalar yuzaga keladi.

#### 5. Psixologik xavfsizlik va stress

Sun'iy intellektning tez rivojlanishi va yangi texnologiyalarni qo'llash ba'zan psixologik xavfsizlikni ta'minlashni murakkablashtirishi mumkin:

-O'zini keraksiz his qilish: Odamlar, sun'iy intellekt tizimlarining ulardan yaxshiroq ishlashi va samaraliroq bo'lishi tufayli, o'zlarini keraksiz yoki noto'g'ri his qilishlari mumkin. Bu, o'z navbatida, o'z-o'zini qadrlashning pasayishiga olib kelishi mumkin.

-Yangi texnologiyalarga ko'nikishdagi stress: Yangi texnologiyalarga moslashish har doim stress va noqulaylikni keltirib chiqaradi. Masalan, sun'iy intellekt tizimlarini ishlatishda yangi ko'nikmalarni o'rganish va doimiy ravishda yangiliklarga moslashish odamlar uchun ruhiy bosim tug'dirishi mumkin. Masalan: Sun'iy intellektning ishlab chiqilishi va ishlatilishi odamlarning o'zlarini noqulay yoki keraksiz his qilishlariga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, **self-checkout** (o'z-o'zini to'lash) tizimlari supermarketlarda foydalanuvchilarga kassirni o'rnini bosish imkoniyatini beradi. Biroq, bu odamlarni, ayniqsa kasbiy savodxonlikka ega bo'lmaganlarni, tizim bilan ishlashda qiyinchiliklarga duchor qiladi va ular o'zlarini kerakli emas deb his qilishlari mumkin. Bunday holatlar odamlarning stress darajasini oshiradi, chunki ular yangi texnologiyalarni tushunishga yoki moslashishga vaqt topolmaydilar.

#### 6. Axloqiy dilemmalar

Sun'iy intellektning jamiyatga ta'siri ba'zan axloqiy dilemmalarni keltirib chiqaradi:

- Qaror qabul qilishda javobgarlik: Sun'iy intellekt tizimlari odamlar uchun qarorlar qabul qilishi mumkin, masalan, sog'liqni saqlash yoki xavfsizlik sohalarida. Agar bu qarorlar noto'g'ri bo'lsa, kim javobgar bo'ladi? Insonlar bu texnologiyalarga ishonchsizlikni his qilishi mumkin.

- Sun'iy intellektning odamlarni manipulyatsiya qilishi: Ba'zi sun'iy intellekt tizimlari odamlarni qiziqtirgan, lekin axloqiy jihatdan noto'g'ri qarorlar qabul qilishga undashga qodir. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy ishonchni kamaytirishi va axloqiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Autonom transport vositalari (masalan, o'z-o'zini boshqaradigan mashinalar) quyidagi axloqiy dilemmalarni keltirib chiqaradi. Agar mashina yo'lda insonni urib yuborishga majbur bo'lsa, kimni tanlash kerak? O'zini boshqaradigan avtomobil tizimi hayotni saqlab qolish uchun yo'lni o'zgartirish yoki boshqa harakat qilishda qaror qabul qiladi, ammo bu qarorlar muammoli axloqiy masalalarni yuzaga keltiradi. Agar biror tizim noto'g'ri qaror qabul qilsa, kim javobgar bo'ladi? Bu kabi savollar jamiyatda murakkab etik muammolarni keltirib chiqaradi.

#### Xulosa

Sun'iy intellekt texnologiyalari inson hayotini osonlashtiruvchi qulayliklar bilan birga, ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Ishsizlik va iqtisodiy tengsizlik, ijtimoiy izolyatsiya, hissiy ehtiyojlarning qondirilmasligi, axborot manipulyatsiyasi, psixologik stress va axloqiy dilemmalar kabi masalalar SI rivoji bilan bog'liq asosiy muammolar sifatida qayd etilgan. Maqola SI va insoniylik o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash uchun axloqiy tizimlar yaratish, odamlar va SI o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda SI boshqaruvi uchun global normativlar ishlab chiqish muhimligini ta'kidlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dinara, A. (2024). O'SMIRLARNING RIVOJLANISHIGA SALBIY TA'SIR KO'RSATUVCHI IJTIMOY VA PSIXOLOGIK OMILLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(1), 165-170..

2. Rahmiddinova, A. D. (2024). O'QUVCHILARNI PSIXOLOGIK QO'LLAB-QUVVATLASHNING AHAMIYATI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 208-214.
3. Rahmiddinova, A. D. (2024). TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING PSIXOLOGIK ASOSLARI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 202-207.
4. Rahmiddinova, A. D. (2024). IQTIDORLI BOLALAR BILAN ISHLASH PSIXOLOGIYASI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 248-254.
5. Rahmiddinova, A. D. (2024). O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'RTASIDAGI MUNOSABATNI BOSHQARISH USULLARI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 222-228.
6. Rahmiddinova, A. D. (2024). PEDAGOGIKANING ASOSIY TUSHUNCHALARI VA TAMOYILLARI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 229-234.
7. Rahmiddinova, A. D. (2024). TA'LIMDA KOMMUNIKATSIYA VA MULOQOT PSIXOLOGIYASI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 242-247.
8. Rahmiddinova, A. D. (2024). MOTIVATSIYA VA TA'LIM JARAYONI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 196-201.
9. Rahmiddinova, A. D., & Baxodirova, N. Z. (2025). INKLYUZIV TALIMDA NUQSONLI BOLALARNI IJTIMOY HAYOTGA TAYYORLASH CHORA TADBIRLARI. *ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G'OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR*, 7(75), 1-6.
10. Rahmiddinova, A. D. (2024). SHAXSNI TARBIYALASHDA PSIXOLOGIK OMILLAR. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 190-195.
11. Rahmiddinova, A. D. (2024). TA'LIM JARAYONINING METODLARI VA SHAKLLARI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 235-241.
12. Nozimov, J. (2024). Talabalar masofaviy ta'lim jarayonida ishonch tuyg'usini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(10), 384-388.
13. Toxirovich, N. J. (2024). MASOFAVIY TA'LIM JARAYONIDA TALABALARDA MOTIVATSION HISSINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(1), 180-184.
14. Nozimov, J. T. (2024). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CHILDREN FOR FORMATION OF DEVELOPMENT FOR PREPARATION FOR UNIVERSITY. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(5), 575-578.
15. Нозимов Ж. Т. и др. Социально-психологические особенности формирования духовных потребностей в профессиональном развитии студентов // *Science and Education*. – 2024. – Т. 5. – №. 5. – С. 455-459.
16. qizi Fattullayeva, M. M. (2024). INSONNING XULQ-ATVORI VA MOTIVATSIYASI. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 1(2), 301-306.
17. Fattullayeva, M. M. (2024). O 'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLAR O 'QITISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI. *PEDAGOG*, 7(4), 243-248.

18. qizi Fattullayeva, M. M. (2024). YOSH VA PSIXOLOGIK RIVOJLANISH: BOLALIKDAN KATTALIKKA QADAR. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 1(2), 295-300.
19. qizi Fattullayeva, M. M. (2024). PSIXOLOGIYANING UMUMIY TUSHUNCHASI VA ASOSIY SOHALARI. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 1(2), 289-294.
20. qizi Fattullayeva, M. M. (2024). INSONNING HISSIY TAJRIBALARI VA ULARNI BOSHQARISH. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 1(2), 307-312.